

YANGI O`ZBEKISTONNING O`Z TANLAGAN YO`LI

Abdumutalova Diyora Avazbek qizi

Andijon viloyati Baliqchi tumani 50-IDUM o`quvchisi

Nurmuxammamatov Shoxruxbek Murod o`g`li

Ilmiy rahbar IMMBT Andijon viloyati Baliqchi tumani 50-IDUM

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7309337>

Xalq boy bo`lsa mamlakat qudratli bo`ladi !

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti: Sh.Mirziyoyev

Annotatsiya. Ushbu maqolada Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning o`zi ishlab chiqqan taraqqiyot strategiyasi orqali mamlakatimizni qisqa 5 yil ichida qanchalik o`zgatirib haqiqiy demokratik mamlakatga aylantirganligini va o`z tanlagan yo`lidan aslo og`ishmasdan xarakatlanishini , kelgusi avlodlarga esa Buyuk mamlakatni meros qoldirishni ko`rishimiz mumkin bo`ladi.

Kalit so`zlar : jonasjon Vatanimiz, Mustaqillik, Harakatlar strategiyasi, meros, islohot.

НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН СОБСТВЕННО ИЗБРАННЫЙ ПУТЬ

Аннотация. В этой статье мы увидим, насколько Президент Шавкат Миromонович Мирзиёев за короткие 5 лет превратил нашу страну в настоящую демократическую страну благодаря разработанной им стратегии развития, и как он никогда не отклонится от избранного пути и оставит в наследство великую страну будущим поколениям мы сможем достичь.

Ключевые слова: дорогая Родина, Независимость, Стратегия действий, наследие, реформа.

NEW UZBEKISTAN OWN PATH

Abstract. In this article, we will see how President Shavkat Miromonovich Mirziyoyev has turned our country into a real democratic country in a short 5 years thanks to the development strategy he developed, and how he will never deviate from the chosen path and leave a legacy of a great country to future generations we can achieve.

Keywords: dear Motherland, Independence, Action Strategy, heritage, reform.

KIRISH

Prezident Shavkat Mirziyoyev «O`zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o`ttiz bir yillik bayramiga tayyorgarlik ko`rish va uni yuqori saviyada o`tkazish to`g`risida»gi qarorni imzoladi. Xuddi shunday hujjat har yili Mustaqillik kuni arafasida qabul qilinadi.

«So`nggi yillarda, dunyoda koronavirus pandemiyasi va iqtisodiy inqiroz, keskin raqobat, turli qarama-qarshilik va ziddiyatlar tufayli yuzaga kelgan g`oyat og`ir va murakkab vaziyatda mard va oljanob xalqimizning fidokorona mehnati bilan Yangi O`zbekistonni barpo etish va uni jahonga tarannum qilish bo`yicha muhim natijalarni qo`lga kiritayotganimiz, bu yantuqlar xalqaro jamoatchilik tomonidan e`tirof etilayotgani, eng asosiysi, vatandoshlarimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o`zgarib, ular islohotlar samarasini kundalik hayotida his qilib yashayotganini alohida ta`kidlash zarur», — deyiladi hujjatda.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

«2022–2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, erishilgan yantuqlarni mustahkamlab, tub islohot jarayonlarini yangi bosqichga ko`tarish, inson huquq va manfaatlari, uning qadri, sha`ni va g`ururini yetakchi o`ringa olib

chiqish ustuvor vazifamizga aylangan hozirgi vaqtida yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, davlatimizning hududiy yaxlitligi va bo‘linmasligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta’minlash, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik va hamjihatlikni mustahkamlashga intilish ko‘p millatli xalqimizni yanada birlashtiradigan, yuksak marralarga safarbar etadigan beqiyos kuchga aylanib bormoqda», — deya qayd etiladi qarorda.

Jonajon Vatanimiz – O‘zbekiston Respublikasi o‘zining davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgani va mustaqil taraqqiyot yo‘lini boshlaganiga 31 yil bo‘ldi. Istiqlol el-yurtimiz uchun o‘z taqdirining haqiqiy egasi bo‘lib, qadr-qimmatini anglab, munosib hayot kechirish, yurtimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish imkoniyatini yaratdi. Ayni paytda u har bir odamning iqtisodiy, ijtimoiy sohalarda iste’dod va qobiliyatini to‘la namoyon etishi, huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishining mustahkam zaminidir. Mustaqillik yillarda ko‘hna tariximiz, boy merosimiz, milliy davlatchiligidimiz, muqaddas dinimiz, urf-odat va an'analarimiz qayta tiklandi. Bugungi kunda mehr-oqibat, bag‘rikenglik hamjihatlik kabi oljanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg‘usi yuragimizning tub-tubidan o‘rin oldi.

Mamlakatimiz mutaqilligining 31 yilligini nishonlash arafasida, o‘tgan davr mobaynida bosib o‘tilgan murakkab yo‘limizga yana bir bor nazar tashlash, mustaqil taraqqiyotimiz davomida amalga oshirilgan ishlar, erishgan natijalarni xolisona baholash va ularning mohiyati va ahamiyatini keng jamoachilik, butun xalqimizning ongi shuuriga yetkazish maqsadga muvofiqliр.

TADQIQOT NATIJALARI

Darhaqiqat, istiqlol tufayli o‘zligimizni angladik, ozod xalq, mustaqil davlat sifatida O‘zbekistonning bor bo‘y-bastini, ulkan salohiyatini butun dunyoga namoyon qilish imkon ochildi. Ozodlik bois bizni jahon tanidi, xalqimizning fidokorona mehnati, yoshlarimizning g‘ayrati, azmu shijoati ila vatanimizning shon-shuhrati olam uzra yanada kengroq yoyilmoqda. Hurriyat bergen beqiyos imkoniyatlar negizida ertangi kunimiz - erkin va farovon kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan bunyod etmoqdamiz.

“Mustaqillik” va “islohot” tushunchalariga mushtarak so‘zlar sifatida qarashimiz tabiiy, albatta. Chunki faqat mustaqil davlat va mustaqil jamiyatdagina islohotlarni amalga oshirish mumkin. Mustaqillik ham, islohotlar ham insonning yaxshi yashashi, munosib turmush darajasiga erishishi uchun zarur sharoit yaratdi. Mamlakatimizda mustaqillik yillarda olib borilgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida milliy davlatchiligidimiz poydevori mustahkamlanib, davlatimiz suvereniteti, chegaralarimiz daxlsizligi ta’minlandi, jamiyatimizda tinchlik va osoyishtalik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini kuchaytirish, qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklari hamda manfaatlarini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Iqtisodiyotda ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan eski boshqaruvoz tizimidan voz kechib, bozor munosabatlariiga bosqichma-bosqich o‘tilgani, pul-kredit siyosati puxta o‘ylab olib borilgani, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakati uchun yo‘l ochib berilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur’atlar bilan rivojlanishini ta’minlash, inflyatsiyani prognoz ko‘rsatkichlari darajasida saqlab qolish, eng muhimmi, xalqimizning hayot sifati darjasini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lmoqda. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat

Mirziyoyev tomonidan imzolandi. Bunga muvofiq davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning 5ta ustuvor yo‘nalishi keltirilgan:

- demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish;
- qonun ustuvorligini ta’minalash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
- iqtisodiyotni rivojlantirish va liberalallashtirish;
- ijtimoiy sohani rivojlantirish;
- xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minalash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatlari va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlardir.

MUHOKAMA

Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatimizni modernizatsiya qilishda parlamentning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi va davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, davlatning iqtisodiyotni tartibga solish borasidagi funksiyalarini qisqartirish, “yagona oyna” tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini keng joriy etish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish va fuqarolik jamiyatni institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish yo‘lida davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishdan iborat. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minalash, yurdoshlarimiz tomonidan odil sudlovga erishish darajasini oshirish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to‘laqonli joriy etish, yuridik yordam va xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash uchun qonun ustuvorligini ta’minalash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga e’tiborni yanada kuchaytirishdan iborat. Iqtisodiyotning ochiqligi va raqobatdoshligini oshirish, iqtisodiy mustaqillikni kuchaytirish, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish, yetakchi ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya va faol diversifikatsiya qilish, moliya-bank sohasini tubdan isloh etish, xususiy mulk va tadbirkorlikni har tomonlama himoya qilish, tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish, turizm tarmog‘ini samarali rivojlantirish, qishloq xo‘jaligida tarkibiy o‘zgartirishlarni amalga oshirish maqsadida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberalallashtirishdan iboratdir. Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoya va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish;

Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minalash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatlari va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo‘naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash.

XULOSA

Farmon bilan 2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Milliy komissiya, shuningdek ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish bo‘yicha komissiyalar tashkil etildi. Har

qanday g‘oya, agar u kelajakka bo‘lgan ishonchni mustahkamlasa, jamiyatning kuchi va resurslarini jalb qila olsagina, muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Shuni g‘urur bilan aytish joizki, aholi turli qatlamlari bildirayotgan fikr-mulohazalar, takliflar Harakatlar strategiyasi loyihasi xalqimizning yaratuvchanlik salohiyatini yanada keng ro‘yobga chiqarib, odamlarimizni shijoat bilan ezgu maqsadlar yo‘lida birlashtirishga qodirligini ko‘rsatdi. Harakatlar strategiyasini qabul qilish bo‘yicha jamiyatimizning barcha qatlami yakdillik namoyish etayotgani xalqimizning ulkan muvaffaqiyatlar, taraqqiyotning yangi marralariga erishish, pirovardida odamlarimiz turmush darajasini yanada oshirish imkonini beradi.

REFERENCES

1. Yangi O`zbekiston Strategiyasi (Sh.Mirziyoyev)
2. O`zbekiston intseklopediyasi
3. O`zbekiston tarixi
4. Kun.uz
5. Uzedu.uz
6. Wikipediya.com
7. My.gov.lex.uz